



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!2023-yil 10-oktabr, seshanba,  
119 (23.840)-son

**KUN  
HIKMATI**  
Harakatda qat'iyat  
sezilmasa, har  
qanday imkoniyat  
yutuqqa kafolat  
bo'lomaydi



## SAMARQAND UNWTOning YUBILEY SESSIYASIGA MEZBONLIK QILADI

Joriy yilning 16-20-oktabr kunlari Samarqandda Butunjalon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiya si bo'lib o'tadi. Unda dunyoning 150 dan ortiq mamlakatidan sayohlik sohasi vakillari ishtirok etishi kutilmoqda.

Anjuman dasturidan turli uchrashuvlar, investitsiya va ta'lif forumlari, ko'rgazmalar o'rinn olgan.

Ayni paytda shaharda mazkur xalqaro forumga qizg'in hozirlik ko'rilmoxda. Ko'cha va xiyobonlar, tadbirlar o'tkaziladigan Samarqand xalqaro turistik markazi hududi anjuman ruhiga mos tarzda bezatilmoqda.

Xususan, mehmonlarning asosiy qismi keladigan Samarqand xalqaro aeroportida Bosh Assambleya 25-sessiyasi ishtirok etuvchi mamlakatlarning bayroqlari o'rnatilgan. Anjumanga tayyorgarlik ishlari muvofiqlashtirib boruvchi shahar tomonidan mehmonlarga transport xizmati ko'rsatish, gidlar bilan ta'minlash, madaniy-ma'rifiy tadbirlar uyuştirish va boshqa xizmatlar bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan.


Aeroport bosh direktori o'rnbosari Xilmi Yilmazning ma'lum qilishicha, tadbirga hozirlik doirasida mehmonlarga yuqori sifatlari xizmat ko'rsatish, ularni qiziqitqigan savollarga javob berish maqsadida 24/7 rejimida ishlaydigan shtab-kvartira tashkil etilgan. Bu yerda malakali mutaxassislar tomonidan tunu kun ish olib borilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Butunjalon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasini sessiyasi UNWTOning yillik eng nufuzli yilishi bo'lib, unda tashkilotga a'zo davlatlar turizm sohasi mas'ullari ishtirok etadi. O'zbekiston o'z tarixida birinchi marta ushbu tashkilot sessiyasiga mezbonlik qilmoqda. Bu albatata, mamlakatimizda so'nggi yillarda

turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor hamda qulay investitsiya muhitiga yaratilgani samarasidir.

– Tashkilotning mazkur – 25-yubiley sessiyasini o'tkazishga bir necha da'vojarlar orasidan Samarqandning tanlanishi bejiz emas, – deydi O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi boshqarma boshlig'i Feruz Dodiyev.

– Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori va tashabbusi bilan keyingi yillarda Samarqandni Yangi O'zbekistonning turizm darvozasiga aylantirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yerda xalqaro turistik markaz tashkil etildi, Samarqand xalqaro aeroporti rekonstruksiya qilindi, bundan tashqari, shahar infratuzilmasi yangilandi. Ilgari Samarqandga faqatgina tarixiy obidalarni ko'rish uchun sayyoohlarni kelgan bo'lsa, hozir turistik tarmoqlar va ob'ektlar soni keskin ko'paydi, yangi sayyoqlik yo'naliishlari tashkil etildi. Buning natijasida sayyoohlarni oqimi yil sazin oshib bormoqda. Mazkur tadbir esa nafaqat Samarqand, balki O'zbekistonda turizm sohasidagi taraqiyotning e'tirofi hamda bu tizim salohiyatini oshirish sari dadil qadam bo'ladi. Biz dunyoning 150 dan ortiq davlat turizm sohasi vakillariga o'zimizning bu boradagi imkoniyat va salohiyatimizni namoyon etamiz, boy madaniyatimiz, an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib qilamiz. Bu ham yurtimizga kelayotgan sayyoohlarni oqimi ni yanada oshirishga, turizm sohasida O'zbekistoni keng targ'ib etishga turki beradi.



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews\_uz



https://twitter.com/zarnews\_uz

"Silk Road Samarkand" turistik markazida Xitoyning Sian shahri madaniyi va turizmi taqdimoti bo'lib o'tdi. Madaniy aloqalarni mustahkamlash, xususan, turizmni rivojlantirishga qaratilgan tadbirda Xitoyning qadimiy Sian shahri turizm salohiyati namoyish etildi.

Tadbirda Samarcand viloyati va Sian shahri mas'ullari ishtirok etib, hamkorlik aloqalarni yo'nga qo'yishning muhim jihatlariga xo'talib o'tdi.

– Sian shahri bilan Buyuk Ipak yo'li orqali qadimdan savdo-sotiq aloqalari rivojlangan, – deydi viloyat hokiminining mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha maslahatchisi Nozir Ibragimov. – Bugungi taqdimot davomida Sian shahringin turistik salohiyati qanchalik yuqori ekanligiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Sianning o'ziga xosligi shundaki, bu shahar qadimiylik va zamonaliviylikni uyg'unlashtira olgan betakror shahar hisoblanadi. Bugungi kunda Sian – Toshkent o'rasisida aviaqatnoven yo'nga qo'yilgan. Biz Sian – Samarcand yo'nalishida ham aviaqatnoven yo'nga qo'yish taklifini bildirdik.

Tadbirda turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha Samarcand viloyati turizm boshqarmasi va Sian shahri madaniyat va turizm boshqarmasi o'rasisida memorandum imzolandi.

– Samarcand bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida memorandum imzolab, Buyuk Ipak yo'lidagi ikki qadimiy shahar o'rasisidagi aloqalarni qayta tiklaymiz, – deydi Sian shahri madaniyat va turizm boshqarmasi boshlig'i o'rnbosari Zuo Dong. – Qadimiy Samarqandning dunyo hamjamiatidagi o'rni barcha-

## QADIM SHAHARLARNI TURIZM BIRLASHTIRADI



ga ayon. Bizning Sian shahri ham uch ming yillik tarixga ega. Buyuk Ipak yo'li Siandan boshlanadi. Uning madaniyi, tarixi ham juda boy. Butunjalon madaniy merosidan joy oлган oltita tarixiy maskan joylashgan. Taqdimotimiz davomida buni yanada yorqinroq tushuntirishga harakat qildik. O'laymanki, bugungi tadbirimiz Sian va Samarcand o'rasisida turizm, madaniyat sohalaridagi hamkorligimizning yangi bosqichini boshlab beradi.

Tadbir davomida Sian milliy raqslari, xususan, Tang sulolasi qo'shiq va raqs durdonalari hamda o'zbek milliy san'ati namunalari namoyish etildi. Shuningdek, Sian shahri madaniyat va turizm departamenti tomonidan omadli mehmon o'yini tashkil qilinib, unda sovg'alar hamda avaireyslarga chiptalar va Sian shahridagi eng yirik mehmonxonalar joylashish imkoniyati beruvchi yo'llanmalar taqdim etildi.

– Turistik firmada turoperator sifatida faoliyat yuritaman, – deydi Voris Muxtarov. – Taqdimot davomida Sian shahringin diqqatga sazovor joylarini ko'rib, sayohatga borish istagi tug'ilgan edi.

Tadbir yakunida o'tkazilgan tanlovda Sian avaireysiga chipta yutib oldim. Nasib bo'lsa, bu qadimiy shaharga borib, uning turizm salohiyatini o'rGANIB qaytaman. A.ISROILOV.



### Rustam Xolmurodov Xitoy universiteti faxriy professori

Xitoyda o'tkazilayotgan Ipak yo'li universitetlari assotsiatsiyasining yig'ilishida Sharof Rashidov nomidagi Samarcand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi Rustam Xolmurodovga Si'an Jiatong universitetining Faxriy professori unvon topshirildi.

2015-yilda tashkil etilgan Ipak yo'li universitetlari assotsiatsiyasi 37 mamlakatdan 150 dan ortiq universitetlarni birlashtirgan. Samarcand davlat universiteti mazkur tuzilmaga 2018-yilda a'zo bo'gan.

Samarqand davlat universiteti axborot xizmati.

## Sportchilarimiz Osiyo o'yinlarida qanday natijaga erishdi?

Xitoyning Xanchjou shahrida o'tkazilgan XIX yozgi Osiyo o'yinlari yakunlandi. Osiyo qit'asining 45 davlatidan 11 ming nafardan ziyod sportchi ishtirok etgan musobaqalarda milliy terma jamoamiz a'zolari 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza, jami 71 medal bilan musobaqani beshinchli o'rinda yakunladi. Bu O'zbekiston delegatsiyasining Osiyo o'yinlari tarixida medal sifati va soni bo'yicha eng yaxshi natijasi bo'ldi.

Musobaqalar yakunida "Xanchjou-2022" XIX yozgi Osiyo o'yinlarining yopilish marosimi bo'lib o'tdi.

Marosimda Osiyo Olimpiya kengashiga bayrog'i kelgusi Osiyo o'yinlarining mezonbi Yaponiyaning Aichi-Nagoya shahriga topshirildi.

Bu galgi Osiyo o'yinlarida 18 sport turi bo'yicha viloyatimizdan 48 nafar sportchi ishtirok etib, 13 ta medal(5 ta oltin, 5 ta kumush, 3 ta bronza)ni qo'lg'a kiritdi.

Ular orasida quyidagi sportchilar bor:

### Oltin medal

- dzyudo - Diyora Keldiyorova;

- akademik eshkak eshish (M4 dasturi) - Shehroz Hakimov, Davronjon Davronov, Dilshodjon Xudoyberdiyev;

- akademik eshkak eshish (LW2x juftlik dasturi) Malika Tagmatova;

- akademik eshkak eshish (M4x dasturi) - Shahzod Nurmatov, Sobirjon Safaraliyev;

- dzyudo - Davlat Bobonov;

- dzyudo (jamoaviy dastur) - Davlat Bobonov va Diyora Keldiyorova.

### Bronza medal

- akademik eshkak eshish (LW2x juftlik dasturi) - Shahzod Nurmatov va Sobirjon Safaraliyev;

- boks - Nigina O'ktamova;

- shaxmat (jamoaviy) Jahongir Vohidov.



## Keksalar e'zozda

338 nafarga yaqin keksalarga rehabilitatsiya vositalari - nogironlik aravachalari, hassa va

qo'lliqtayoq, eshitish moslamasi kabilar, 5 ming nafardan ortiq yakka yolg'iz va muhtoj keksalarga oziq-ovqat mahsulotlari berildi, 2 ming nafari zarur dori-darmonlar bilan ta'minlandi. Uyida yetib qolgan 1500 nafar, shifoxonalarда davolananayotgan 450 nafar nuroniyning holdidan xabar olinib, ularga moddiy va ma'naviy yordamlar ko'rsatildi.

Haftalik doirasida "Nuroniyalar - yoshlar nigo'hida" mavzusida madaniy tadbirlar, keksalar va yoshlar uchrashuvlari tashkil etildi. Ta'lim muassasalarida uyuştirilgan "Asr bilan yuzma-yuz" tadbirlari doirasida 100 yosh va undan katta 38 nafar nuroniy holdidan xabar olindi.

Madaniy ko'ngilochar tadbirlari doirasida barcha mahallalarda shaxmat-shashka, piyoda yurish, voleybol, mini-futbol, stol tennisni kabi sport musobaqalari o'tkazildi, ularda 30 ming nafardan ortiq nuroniy ishtirok etdi.

S.MARDIYEV.

## TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI BAYONOTI

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlari vazirligi Falastin-Isroi mojarosida hududida tinch aholi orasida ko'plab qurbanlarga olib kelgan va butun Yaqin Sharqdagi vaziyatni sezilarli darajada murakkablashtirgan holat keskinlashganidan jiddiy xavotir bildiradi.

Biz kurashayotgan tomonlarni qurollli qarama-qarshilikni tez fursatlarda tugatish va inqirozni siyosiy hamda diplomatik vositalari orqali hal qilish uchun barcha choralarini ko'rishga chaqiramiz.

So'nggi voqealar munosabati bilan halok bo'lganlarning oila a'zolari ga chuqr hamdardlik bildiramiz va barcha jarohatlanganlarning tezroq sog'ayib ketishini tilaymiz.



## VAQT, MASOFA, DARD QISQARISHI

nimalar evaziga yuz bermoqda?

Shu tariqa bir paytlar ko'plab xastaliklarni davolatish uchun Toshkent shahriga yoki chet davlatlarga borishga majbur bo'lgan odamlar bugun viloyatning o'zida, zamонави shifoxonalarda davolanmoqda. Bu o'zgarishlarni ayrim tibbiyot muassasalarini misolda ko'rsak.

**Firdavs O'LMAsov,**  
**Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali direktori:**

- Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi viloyat filiali 175 o'rindan 225 o'runga aylandi. Keyingi to'rt-besh yil davomida moddiy-teknik baza 90 foizga yangilanib, yangi nur terapiya apparatlari, mammografiya uskunasi, yanada samarali tashxislash imkonini beruvchi diagnostik uskunalar o'rnataldi.

Bunday imkoniyatlar bilan nafaqat viloyatimiz ahli, balki chet mamlakatlardan kelayotgan bemorlarni ham davolayapmiz. Bir paytlar, hatto, o'z aholimizni davolashga imkoniyatimiz bo'lmay, aksar hollarda ularni poytaxtga jo'natardik.

Onkologiya sohasida xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda uchta yirik loyiha amalga oshirilishi ko'nda tutilgan. Xususan, Turkiyadagi onkologiya markazi bilan hamkorlikda filialda 25 million dollarlik yangi kimyoterapiya bo'limi va yuqori dozali kimyoterapiya qabul qilish uchun maxsus ambulatoriya tashkil etish rejalashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston-Rossiya tibbiyot forumi natijalariga ko'ra, RosAtom korxonasi

bilan hamkorlikda 17,5 million dollar investitsion dastur asosida radionuklin zarrachalar bilan davolash yo'liga qo'yildi.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sherliklik asosida 5,6 million dollar evaziga yangicha davolash uskunlari keltirishi ko'nda tutilgan.

Yuqoridagi ishlarni amalga oshirilgach, filiali nafaqat respublikada, balki MDH davlatlari orasida ham kam sonli tibbiyot muassasalarini qatoriga kiradi.

**Botir TO'XTAYEV,**  
**viloyat ixtisoslashtirilgan ko'z kasalliklari shifoxonasi bosh shifokori:**

- 2009-yilda qadar mazkur klinikada ko'z kasalliklari jarrohligi zarur jihozlar bo'lmagan uchun eski usulda amalga oshirilardi. Bemorlar qimmat bo'lsa-da, xususiy shifoxonalarda davolishiga majbur edi. 2020-yilden Yaponiya granti asosida uzod kutligan fakoemulsifikasiyator apparati berildi. Fakoemulsifikasiya - bu ko'z kataraktasi jarrohligining eng zamонави usuli bo'lib, ko'zga ancha kam jarohat yetkazishi, kasallikning ilk belgilardanoq unga qarshi qo'llanilishi hamda bemorning juda qisqa fursatlarda faol hayotga qaytishi bilan ahamiyatlidir. Keyin eng zamонави mikroskop va umuman, ko'z kasalliklari davolashda zarur bo'ladigan qator uskunalar bilan jihozlandi. Bugun shifoxonamizga qatnosh qamrovi keskin oshdi. Bolalar kataraktasi, ko'z g'ilayligi, qovoq osilishi kabi xastaliklar bo'yicha jarrohlik amaliyotlari amalga oshirilmoqda. Zamонави tibbiyot doim yangi texnologiyalar bilan rivojlanib borgani uchun

shifokorlarning malaka oshirishi bemorlarning salomatligi tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har yili shifokorlarimiz Rossiya, Hindiston, Turkiya kabi davlatlarda malaka oshirib qaytmoqdalar. Xalqaro darajadagi forumlar natijasida xitoylik hamkaslarimiz tomonidan 337 nafer bemorda bepul jarrohlik operatsiyalarini amalga oshirildi, tibbiy ko'riklar o'tkazildi.

**Dilshod RAHMONOV,**  
**viloyat bolalar ko'p tarmoqli  
tibbiyot markazi direktorining davolash  
ishlari bo'yicha o'rinnbosari:**

- Markazimizda ilgari umuman mavjud bo'lmagan bir nechta ixtisoslashtirilgan bo'limlar tashkil etildi. Xususan, bolalarda yurak xastaliklari davolash, jarrohlik amaliyotlari o'tkazish, jarrohlikning kaminvaziv usulidan foydalansh imkoniyati yaratildi.

Shu yilning may oyida Samarcanda o'tkazilgan O'zbekiston-Germaniya xalqaro tibbiyot forumida Germaniya tibbiyot muassasalarini tramatologiya yo'nalishida bir nechta memorandumlar imzolandi. Xususan, O'zbekiston-Rossiya forumi doirasida markazimizda rossiyalik mutaxassislar ishtirotida bemor bolalarda qo'l-kaft sohasidagi murakkab operatsiyalar amalga oshirildi. Xuddi shunday hamkorlik germaniyalik mutaxassislar bilan birgalikda ham amalga oshirildi.

Bugun markazga o'nlab zamонави apparatlar keltirildi, ulardan samarali foydalansh maqsadida xodimlarimiz xorijda malaka oshirmoqda. Gulruh MO'MINOVA tayyorladi.

## Jomboylik pedagoglarga

# TUHMAT QILGANLAR JAVOBGARLIKKA TORTILDI



da Jiz-zax viloyati Baxmal tumanidagi maktablardan birida ham faoliyat yuritib kelgan. Bu aslida mehnatga oid qonunchilik talabining jiddiy buzhishi hisoblanadi. Shu sababli holat mifik tabrariyati tomonidan aniqlangach, xodimga ogohlantirish beriladi. U esa o'z navbatida turmush o'rtog'i M.Sh.ga vaziyat haqida xabar qiladi. Ikkovlon avval mifik tabrariyati, so'ng xalq ta'limi bo'limi rahbari xonasida to'polon ko'tarishadi. Holatga ichki ishlarni bo'limi xodimlari aralashgach, R.I. ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41-moddasi (haqorat qilish), M.Sh. 183-(mayda bezorilik) hamda 194-moddasi (ichki ishlarni organi xodimining qonunlari talablarini qaydasmaslik) ayblovi bilan javobgarlikka tortildi.

Agar ikki huquqbuzar tegishli xulosa qilganda, barcha noxushliklar shu bilan yakuniga yetishi mumkin edi. Ammo ular boshqacha yo'lan bilan o'ch olishni maqsad qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda turli bo'hton,

uydirma gaplar yozib, mifik tabrariyati, o'rinnbosari, pedagogik jamao sha'nini kamitsishga kirishadilar. Jamao yig'ilishlari, dars jarayonlari, mifik tabrariyati turli vaqtgurlarda yozib olingan videolavhalarni noto'g'ri talqin qilib, g'arazli niyatlariga erishmoqchi bo'lishadi. Oqibatda yuqorida atyqanimizdek, jamaatchilikning keskin noroziligi kelib chiqdi.

Yuz bergan holatning barcha jihatlari huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan sinchiklab o'rganildi. Nihoyat jinoyat ishlari bo'yicha tuman sudining sayyor sudida ish mazmunan ko'rib chiqildi.

Sudlanuvchi M.Sh. aybiga to'liq iqror bo'ldi. Pedagogini g'arazgo'ylig yiyatida, o'ta og'ir jinoyat sodir etishda ayblab, tuhmat qilgani, aslida bunga hech qanday isboti, asosi bo'lmaganini tan oldi. Afsuski, ayrim mifik tabrariyati uni ushbu qilishni sodir etishga dalolat qilgani ham surishtiruv davomida oydinlashdi.

Jinoyat kodeksiga ko'ra, bunday qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravarigacha jarima yoki to'rt yuz soatgacha majbuliy jamaot ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikni cheklash jazosi beriladi. Ammo ustoz naqadar olyanob, bag'rikeng inson bo'lishi yana bir bor isbotini topdi. Jamao nomidagi so'zga chiqqan maktab direktori Shohista Namozova sudlanuvchini kechirganini bildirdi. Sud hay'atidan abyulanuvchiga yengillik berishini so'radi.

M.Sh. sodir etgan qilmishi ijtimoiy xavfligini yo'qtog'ani munosabati bilan jazodan ozod qilindi.

Orifjon ODILOV.



## SAMARQANDDA PISTACHILIK RIVOJLANTIRILADI

Buning uchun 60 mingta xonadonda ushbu "Hayot daraxti"ni ekish imkoniyati bor. Har bir xonadonga o'rtacha 20 tupdan ko'chat hisoblanib, jami 1,2 million dona "Yashil oltin"ni parvarishlash rejalashtirilmoqda.

Mutaxassislarining aytishicha, har bir xonadonga o'rtacha 200 kilogramm pista yetishtirilganda ham viloyat bo'yicha 12 ming tonna hosil olinib, daromad 960 milliard so'm (viloyatning qariyb bir choraklik daromadiga teng) olinishi kutilmoqda. Bu bir xonadonga 16 million so'm kirim bo'ladi, degani.

### ISTIQBOLI BORMI?

Umuman, pistachilik serdaromad soha hisoblanib, Sharqda u "Hayot daraxti" deb atalsa, boshqa ko'pgina mamlakatlarda "Yashil oltin" deb nomlanadi. Ayniqsa, fors mamlakatlarda pistani boylik va mo'l-ko'lilik ramzi sana-shadi.

Uning hosiliga jahon bozorida talab yuqori bo'lib, bir kilogramm pista o'rtacha 80-200 ming so'mgacha so-tilmoqda. Xandon pista yuqori diyetik mahsulot bo'lib, mag'zida 49 foizdan 60 foizgacha moy, 15-20 foiz oqslis, 3-8 foiz qand va boshqa mikroelementlar mavjud. Shu bois respublikamizga bir yilda 100 million dollarlik pista import qilinadi.

Pista kelib chiqishi va geoekologik xususiyatiga ko'ra qurg'oqchilikda va yuqori haroratda o'sishga moslashgan. Unga dengiz sathidan 500-1200 metr balandlik, o'rtacha yog'ingachilik miqdori 300-400 millimetr bo'lgan yerlar qulay hisoblanadi. Yoz va qish oylarida havo harorat +46'S darajadan -40'S darajagacha o'zgargan ekstremal sharoitda o'sib, rivojlana oladi.

Mamlakatimizda samarasiz foydalilanlayotgan lalmi hamda tog'oldi hududlarda bo'sh turgan yerdarda pistachilik rivojlanishiga orqali aholi daromadini oshirish bo'yicha katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, Samarcanda dengiz sathidan 500-1200 metr balandlikda 120 ming hektar xandon pista yetishtirish uchun qulay yer maydoni mavjud.

### PLANTATSİYALAR BO'LADI

Davlat rahbarining viloyatga tashrif chog'ida ushbu masalaga ham alohida e'tibor qaratildi. Shu asosda pista ekish uchun mos 120 ming hektar yer maydonining 80 ming hektarida pista plantatsiyalarini barpo etish choralar ko'rilmoxda.

Bu maydonlarga 22,4 million tup ko'chat ekiladi va yillik yilpi hosil 56 ming tonnani tashkil etib, 3,9 trillion so'm daromad olinadi. Bunda sof foyda 1,1 trillionni tashkil etishi kutilmoqda. Eng muhim, bu orqali 320 ming ishchi o'rin yaratiladi.

### TAJРИBA BORMI?

Aslida pistachilik viloyat uchun butkul yangi soha emas. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda Past Darg'om tumanidagi "O'g'il ona" fermer xo'jaligida 204 hektar, Urgut tumanidagi "Madina lazzati uzumzorlari" fermer xo'jaligida 40 hektar pistazor barpo qilingan. Joriy yil kuzda Past Darg'om tumanidagi "Charos agro uzum" MCHuda 313 hektar, Nurobod tumanidagi "Qurbanoy ona" fermer xo'jaligida 50 hektar maydonda xandon pista ko'chatlari ekilishi rejalashtirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, qurg'oqchilik avtomobil yo'l yolariga 1,5 million dona pista ko'chatini ekish choralar ko'rilyapti. Birgina shu orqali 3,6 ming tonna hosil va 262,5 milliard so'm daromad olinishi kutilyapti.

### SOLISHTIRIB KO'RING!

Odatda 1 hektar pistazor tashkil etishi uchun 6x6 sixeda 280 dona ko'chat ekiladi. Yillik hissildorlik gektariga 0,7 tonnani tashkil etadi. Chunki pistaning bir tupidan 7-yildan 2-3, 10-yilda 10 kilogramm xandon pista yig'ib olinadi. Bunda 7-yildan gektaridan 49 million, 10-yilda boshlab 100 million so'm yillik daromad olish mumkin.

Ayni paytda 1 hektar lalmi g'alladan 2,1 million so'm (pistaga qaraganda 23 marta kam), 1 hektar suvli maydonidagi paxtadan 40 sentner hosil olinganda 33,2 million so'm (pistaga qaraganda 5,8 million so'm kam) daromadiga ega bo'lish mumkin.

Bundan tashqari, 1 hektar yerdagi suvli g'alladan 60 tsetner hissildorlik bilan 18 million (pistaga qaraganda 31 million so'm kam), 1 hektar suvli maydonidagi makajo'xoridan 100 sentnerdan hosil olinganda 40 million (pistaga qaraganda 9 million) so'm kam daromad olinishi qilinadi.

Mutaxassislarining aytishicha, ushbu hisob-kitoblar pistaning birinchi yilgi xarajatlari bilan qo'shib olinigan. Pista to'liq hosiliga kirdanga ko'sratikchilar 3-5 marta yuqori bo'ladi va asosiyisi, pista daraxtlari 1000 yilgacha meva berarkan.

Y.MARQAYEV tayyorladi.

Yoshlar muammolarining yechim topishida yoshlar yetakchilarining o'rni muhim. Ular eng quyi bo'g'in - mahallada tadbirdorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, sportni ommalashtirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, yoshlarini vatandarlariga ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonligini oshirish yo'nalişlari uchun ishlarni tizimi amalga oshirishga ko'maklashyapti.

Urgut tumanining O'zbekiston mahallasida yashovchi 6 ming nafarga yaqin aholining 2 ming nafardan ortig'i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qildi. Bugun mahalla yoshlariga sardorlik qilayotgan Zavqiddin Mamatov tajribali yetakchilardan.

- Bundan avval ham maktabda yoshlar yetakchisi vazifasida ishlaganman, - deydi Zavqiddin. - Yoshlar yetakchilari mahallalarga o'tkazilganidan so'ng o'z mahallamda ishlashadi. Bu jahbada tajribaga egalim asqotdi. Mahalla va mabkab hamkorligini yo'lg'a qo'ydim. Haftaning har bir kuniga alohida tadbirlar belgilab olganman. Masalan, dushanba - yoshlar muammolarini o'rganish kuni. Haftaning biringchi ishlarni mahalladagi ijtimoiy daftarlarda turgan yoshlarning murojaatlari bilan ishlayman. Joriy

## Zavqiddinning xayrli ishlari

mahalla faollari maslahatgo'y, ilg'or yoshlar kamarbasta bo'lyapti

yilda xatlov va o'rganishlar asosida 25 nafar yoshti "Yoshlar daftari" ga tavsiya qildik. Imkoniyati cheklangan yoshlardan xabar olib, ularni qynab kelayotgan muammolarini hal etish maqsadida imtiyozi kreditlar ajratilishiha ko'maklashdik. Shunday ehtiyojmand yoshlardan Gulbon Murodullayeva hamda Go'zal Namozovaga hokim yordamchisi tavsiysi asosida tikuva mashinasi olib berildi. Ular tikuvcilish qilib, ro'zg'origa daromad keltiryapti.

Shuningdek, mahallada ijtimoiy daftarga kiritilgan 2 nafar yoshta imtiyozi kredit, 9 nafariga asbob-uskuna olib berilgan. Bundan tashqari, yoshlar yetakchisining sa'y-harakati bilan mahalladagi 4 nafar talaba-yoshlarining to'lov-shartnomasi mablag'larini to'lab berildi.

- Yoshlarimizning tadbirdorlikka ishtiyogi baland, - deydi mahalla yoshlar yetakchisi. - Shundan kelib chiqqan holda ularga ishlab chiqarish sexlari tashkil etishida ko'maklashib, bu orqali o'z tengdoshlarining ham bandligini ta'minlashga zamin yaratyapmiz.

Imkoniyatlardan unumli foydalaniib, imtiyozi kredit

hisobidan ishlashda qilayotgan yoshlar ham talaygina.

- Qo'llimda hunarim bo'lsa-da, ishlashda qilish uchun boshlang'ich mablag'im yo'q edi, - deydi Muxtor Ergashev. - Yoshlar yetakchisining maslahati va ko'magi bilan 30 million so'm imtiyozi kredit olib, ishlashda qilidim. Mahallada sex tashkil qilib, 5 nafar tengdoshimni ham ishlashda qilidim. Plastik eshilish va romlar yasashni yo'lg'a qo'yanymiz. Hozir tuman markazida ham biz tayyorlayotgan mahsulotlarning xaridori ko'p.

Mahalla yoshlaridan mehnat migrant bo'lib, chet mammalatlarga ketganlari bor. Yoshlar yetakchisi ular bilan doimiy alogada ekanini ta'kidladi.

- Men bu yoshlarni ishsiz yoki mehnat migrantlari demagan bo'lardim, - deydi Zavqiddin. - 50 nafradan ortiq mahallamiz yoshlari Rossiya Federatsiyasi va qo'shni mammalatlarda tumanimizning asosiy biznes tarmoqlaridan bo'lgan suruq meva savdosini shug'ullanadi. Ular ikki, uch oyda kelib, oиласидан xabar oladi, to'y-m'a rakalarda qatnashadi. Ularni yonimizda, biz bilan birga desak ham bo'ladi. Chet elda qurilish

ishlarda ishlayotgan bir nechta yoshlarimiz bilan ijtimoiy tarmoqlar orqali gaplashib, ahvoldan xabardor bo'lib turamiz, muammolar yuzaga kelganda, bamaslahat baratraf etishga harakat qilyapmiz.

Mahalla yoshlar sportda ham tumanda yetakchilardan. Yoshlar yetakchisi shanba kuni mahalla sport majmuvalari, mabkab, kasb-hunar muassasalaridagi sport zallarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish maqsadida musobaqa va ko'rik-tanlovlardan tashkil etadi.

- Mahalla yoshlar bo'sh vaqtida mabkab sport zalida stol tennis, voleybol o'ynadi, musobaqalarda muntazam ishtirot etadigan jamoalarimiz bor, - deydi yoshlar yetakchisi. - Qilayotgan ishlarimiz samarasini o'laroq, sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishyapmiz. Besh tashhabus olimpiadasida sportning voleybol turi bo'yicha yoshlarimiz sektor bosqichida g'olib bo'lib, tuman bosqichiga yo'llanma oldi. Shuningdek, mahallamizdagli mabkab hamkorligida "Zakovat" musobaqasi, "Yosh kitobxon" tanlovlarini o'tkazib kelyapmiz.

Mahalladagi yoshlarning muammolari yoshlar yetakchisiga katta mas'uliyat yuklaydi, albatta. Bugun Zavqiddinga bu xayrli ishlarda mahalla faollari maslahatgo'y, ilg'or yoshlar kamarbasta bo'lyapti.

Sulaymon MARDIYEV.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'londar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

## Barcha yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan, chet el investorlari diqqatiga!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdag'i "Iqtisodiyotda davlat ishtirotini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-102-sont qaroriga muvofiq, davlat va davlat ishtirotidagi korxonalarining bo'sh turgan ko'chmas mulk obyektlari hamda ulushlari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali solilishi belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi davlat mulki obyektlari bo'yicha

## SAVDOLAR E'LON QILINADI

T/r	Aktiv nomi	Balansda saqlovchi tashkilot nomi	Joylashgan manzili	Umumiylar maydoni (ga.)	Bino va inshootlarning umumiylar maydoni (kv.m.)	Savdolarga chiqarilgan boshlang'ich narxi (so'm)	Savdo sanasi	Ariza berishning oxirgi muddati
1	Bo'sh turgan bino va inshoot	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalishni markazi Samarcand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani, "Buloqboshi" MFY	0,2642	612,65	628 002 000,0	06.11.2023 y.	06.11.2023 y.

### Auksionga qatnashish tartibi to'g'risida:

Ushbu obyektlarini "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlaysiz auksionlarni tashkil etish" Ajning "e-auksion.uz" sayt maydonchasi o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdolarda qatnashish istagida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar xatlov va baholash ishlari yakunlangandan keyin "e-auksion.uz" saytida qoidalalar bilan tanishgan holda ro'yxatdan o'tib, savdo jarayonlarida qatnashishlari mumkin.

Ro'yxatdan o'tgan jismoniy va yuridik shaxslar Davlat xizmatlari markazidan yoki "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron raqamli imzo sertifikatlarini olishi mumkin.

### Auksionda qatnashish uchun ariza berish:

Ro'yxatdan o'tgan va elektron raqamli imzoga ega bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar "e-auksion.uz" saytida yaratilgan "Shaxsий

kabinet"lari orqali kirib, o'tkaziladigan auksionlar ro'yxatidan o'ziga kerakli obyektni tanlashi va uhaqida tegishli ma'lumot ega bo'lishi mumkin. Auksion savdosiga qo'yilgan har bir mol-mulkka tizim o'ziga xos takrorlanmaydigan LOT raqami beradi.

Auksion savdosiga qatnashmoqchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar mulk haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, shu yerda ko'rsatilgan bank rekvizitlariga ko'rsatilgan zakalat mablag'ini to'lagan (to'lov hujatida auksiondagiligi LOT raqami ko'rsatilishi kerak) holda auksion savdosida qatnashish uchun elektron tarzda ariza berishlari lozim.

Elektron tarzda ariza berish jarayonida ishtirotchi tomonidan elektron raqamli imzo bilan imzolangan holda ariza yuboriladi. Ariza elektron tarzda yuborilgach, ishtirotchining "Shaxsий kabinet"ga ariza qabul qilinganligi yoki qaytarilganligi to'g'risida javob xabar keladi. Auksion savdosida qatnashish ariza berish saytda ko'rsatilgan muddatda to'xtatiladi.

### Auksion jarayoni:

Ishtirotchilar tomonidan savdoda qatnashish uchun ariza berilgandan so'ng, savdo boshlanadigan kunda (vaqtida) ishtirotchilar "e-auksion.uz" saytida maxsus login va parollari tergan holda "Shaxsий kabinet"iga kiradi va "Kabinet"ga o'tilgandan so'ng "Mening auksionlarim" bo'limidan qatnashmoqchi bo'lgan auksionini tanlayadi.

Shunda dastur tomonidan "Ishtirotchini tasdiqlash" so'raladi, ishtirot etish tasdiqlangandan so'ng savdo jarayonida ishtirot etish mumkin bo'ladi (auksion savdo o'tkazish kuni soat 10:00 da boshlanadi).

Auksionda qatnashuvchilarga dastur tomonidan alohida tartib raqam beriladi.

Auksionning boshlanishi ishtirotchilardan LOTni boshlang'ich narxdan bitta qadamga oshirilgan narxdan sotib olish bo'yicha tasdiqlashni so'rashdan boshlanadi. Agar taklif berilgandan keyin 10 daqiqa davomida auksion ishtirotchini

laridan biri belgilangan qadamga oshirilgan LOT narxini tasdiqlasa, keyingi taklifni tasdiqlash uchun vaqt yana 10 daqiqa uzaytiliradi.

Agar tasdiqlangan oxirgi taklifdan so'ng 10 daqiqa davomida keyingi oshirilgan LOT narxi bo'yicha taklif auksion ishtirotchilarining birortasi tomonidan tasdiqlanmasa, savdo auksion natijalari haqidagi bayonnomma avtomatik tarzda shakllantirilgan holda yakunlanadi. LOT narxi bo'yicha taklifni oxirgi tasdiqlagan ishtirotchauksion g'olib bo'lib deb topiladi. Shundan so'ng ishtirotchiga g'olibli bayonnomasi topshiriladi yoki ishtirotchilari bilan kelishgan holda pochta orqali yuboriladi.

Savdolar natijalari bo'yicha g'olibli bayonnomasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi (Davlat aktivlarini sotishiga tayyorlash va sotish ishlari muvofiqlashtirish bo'limi).

**Ma'lumot uchun telefonlar:**

+99866-233-96-64,

+99899-447-17-70.

**Faks:** +99866-233-73-54.

**Facebookdagi rasmiy sahifa:**

Sam Dav Aktiv

**Veb-sahifa:** privatization.davaktiv.uz

**Internet tarmog'i idagi veb-sayt:**

samarqand@davaktiv.uz

## "E-auksion" savdo platformasi orqali Xalq IPOsida ishtirot eting

### Xalq IPOsi aslida nima?

IPO - Initial Public Offering (birlamchi ommaviy taklif) kompaniyalar o'z aksiyalarini birinchi marta keng jamoatchilik uchun sotuvga chiqarishidir.

Xalq IPOsi deganda esa kompaniya aksiyalarini chet ellik investitorlar emas, birinchi navbatda mahalliy aholi uchun savdoga qo'yilishi nazarda tutiladi. Aholimiz soni, uning moliyaviy savodxonligi oshib borayotganini hisobga olsak, hissadorlar kelishgan holda kompaniyalarning bir qismini millionlab ulushlarga bo'lib, chakana (retail) investorlarga pullashi - yuz minglab dollar "arzon pul"ni olib keladi.

### O'zbekistonda IPO qilgan korxona bormi o'zi?

O'zbekiston tarixida birinchi marta 2017-yil dekabrida "Kvars" AJ "Toshkent" fond birjasi IPO o'tkazgan. Shundan keyin "Jizzax plastmassa" AJ ham aksiyalarini ochiq ravishda fond birjasiga joylagan. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotda davlat ishtirotini qisqartirish, davlat aktivlarini xususiyashtirish orqali xususiy mulkchilikni kengaytirish, samarasiz ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarini tugatish yuzasidan tizimi islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususian, 2023-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyotda davlat ishtirotini qisqartirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 102-sont qarori



imzolandi. Qarorga muvofiq, aksiya paketlari "bitta aksiya - bitta lot" tamoyili asosida xalq IPOsin o'tkazish tartibida ommaviy savdolar orqali sotiladigan 40 ta yirik korxona aksiyalari savdoga chiqarilishi belgilandi.

Albatta, bu mahalliy qimmatli qog'ozlar bozorining ildamlashiga turtki bo'ladi. O'zbekistonda kapital tanqisligi ko'pchilik ishbilarmonlar ham, top menejerlar ham chuquq anglaydigan haqiqat.

Hozirda "E-auksion" savdo platformasidan 1,5 million foydalanuvchi ro'yxatdan o'tgan. Aksiyalarini sotib olishda "E-auksion" elektron savdo platformasida xalqning baracha qatlamlari uchun soddalashtirilgan va teng sharoitlar yaratilgan. Mahalliy investorlarga "E-auksion" elektron savdo platformasi, shu jumladan, mobil ilovasi orqali real vaqt rejimida ularni identifikasiya qilish, investitsiya visitachilarini bilan shartnomalar tuzish va depo hisob raqamini ochish im-

koniyati yaratiladi.

Aksiyalarini sotib olish uchun elektron arizalar mahalliy investorlarning o'zi tomonidan yoki investorlar nomidan harakat qiluvchi investitsiya visitachisi orqali berilishi mumkin bo'ladi.

Onlayn auksionlar yakunlari ga'za ko'ra, oldi-sotdi shartnomalari qimmatli qog'ozlar savdolari tashkilchilarining savdo maydonchalaridan tashqarida ro'yxatdan o'tkaziladi va uning natijasi to'g'risidagi ma'lumot investorning shaxsий kabinetiga yuboriladi.

### IPOlar sarmoya qiluvchi odamlar uchun nima beradi?

IPOlar ortidan yirik, daromadli va barqaror kompaniyalarni tanlab, ularning aksiyalarini sotib olish odamlarga pul yig'ish imkoniyatini beradi. O'zbekistonda pul odatda chorva mollar, AQSH dollarri yoki tilla buyumlar ko'rinishida yig'iladi. Yoki bankka depozit qilib qo'yiladi. Bank depozitlari yiliga qayta moliyalash stavkasini hisobga olgan holda omonatlarini foizi bilan to'laydi. Biroq aksiyalarga uzoq muddatga pul tikishda murakkab daromad degan imkoniyat bo'lib, biznes rivojanishi, ulushlarga bo'lgan talab oshishi tufayli investitsiyalar eksponsional (shiddatli, to'xtovsiz) o'sib borishi mumkin.

### Shavkat PARDAYEV,

Davlat aktivlarini xususiyashtirishga tayyorlash va xususiyasht

# TO'YLARDAGI "INQIROZ" ga KIM SABABCHI?

**"HAQIQATNING  
YOVSHAN  
ISLARI..."**

Faxriyorning she'riyatida "ko'ngil", "dard", "armon", "sog'inch" tarki dunyo qilgan qalandarlarga o'xshaydi – halol kun ko'rish ilinjida dunyo kezib yurgan sargashtalardek. U bir she'rida "tahrir qilib bo'imaso sog'inchni" deydi. Chindan ham uni tahrir qilish imkonsiz. Badiiy asarni, maqolani tahrir qilish mumkin, sog'inch iztirobi esa bu udumlarga bo'ysunmaydi. Sog'inch o'zining iztirob va ingroqlari, shewayu shivirlari bilan bir butun. Faxriyoring she'rga sog'inchga qaragan-dek yondashadi. Yolg'ondan sog'iniib bo'Imaganidek yolg'on-dan yozib ham bo'lmaydi. She'r ham aslida sog'inchidan yaraladi. Kimingdir yo nimanidir sog'inchidan. Dardning mazmuni va shakli bor, deydi shoir. Xuddi shu singari sog'inch ham uryon emas...

Gunoh erur endigi sog'inch,  
Garchi sog'inch sotqinlik emas.

Xiyonat ham emas bu sog'inch,  
Demak, menda gunoh yo'q, demak.

Faxriyoring she'riyatida qo'llanish darajasi muttaqam bo'lgan so'zlar qatori mavjud. Bular – ko'ngil, dard, sog'inch, ko'z yoshi, gul, tosh, erk, gunoh, baxt, muhabbat, yurak, armon kabi so'zlar va bu so'zlarining ichki mazmuni ni oshishga yo'naltirilgan tushunchacha-tasavurlarning rangin manzaralari. Masalan, tosh detali. Bunda tosh shunchaki tosh emas, balki poeit g'oya yukini tashiyotgan obraz, ramz, metonomiya, metafora, sifat.

Shoir Xatirchining Sangijumon qishlog'ida tug'ilgan. She'rlarida ko'p bor tilga olingan Sangijumon – tebrayotgan xarsang degani. She'riyatida takrorlanib turadigan "tosh" ramzi unga belgiligidan tanish va sinashta bo'lgan o'sha xarsangtoshlarning ongostida saqlangan belgilari bo'lsa, ajab emas. "Sirtiga suv yuqtirmagan tosh", "Sariqlik tosh rangi", "Odam taroshlamod bo'isangiz toshdan...", "Nimadingdir oldida tosh bor, // Nimadir bor toshning ortida", "Armonlar yurakka tosh bo'lib cho'kdi", "Tog'larni larzaga keltirar// Faqat yumatlagan tosh", "Toshlar qilar kalaka qiqir-qiqir qiqirlab" va boshqalar.

Muhabbatning ko'yagi oqdir,  
uni har tun tushlарimda kiyasan.

O'ngimda esa...

Toshning oqligiga qarab yig'layman.

Biroz o'ylagach, kitobxon toshmas, ko'ngli qattiq yor haqida so'z borayotganini anglay boshlaysidi.

Faxriyoring she'rlarida ko'zga tashlanib turuvchi jihatlardan yana biri unda yillar, asrilar elagidan o'tgan ibora, maqol, hikmatli so'zlar, frazeologik birkalmalarni yangicha talqin qilishda ko'rinadi.

"Yozning chanqog'ini ko'rib, // Xijolat dan yerga kirib ketgan quduqlar", "Ko'kdan tusholmagan biror bir xumsa// She'riyoring zinalardan zaminga tushsin", "Agar u shor bo'lsa, bizning sho'rimiz, // Agar u oq bo'lsa, demak, qurigan", "Oyni etak bilan yopishni bizga// Maqol emas, shior o'rgartar", "Tun kimming baxtiki, bunschalar qaro", "It hurar, karvondan darak yo'q, ammo", "Hafsala kun yetib, // pir bo'ldi oxir", "Uzilib yotar bir enlik umid", "Mening to'rtta xotinim bordir// to'rtovining oti ham qibla", "Tong o'rniqa qayg'ular otar" kabi. Bu esa bizning ongimizda saqlanib kelayotgan turg'un tushunchaning ma'no va qamrov doirasini kengaytiradi, tasvirlanayotgan ruhiy holat yo kechinmaning yangi qirrasi ni oshishga xizmat qildi.

She'r balandparvoz, osmono'par xayolliy mavhumot emas, balki shu o'zgarayotgan turushimizning, fikr tarzimizning, kiyinoshimiz va yurish-turishimizning ramzi. Masalan, modalar ko'rgazmasida tan olin-gan yangilik asta-sekin urfga aylanadi. Shu singari she'r ham o'zgarib, yangilanib boradi. Shaki o'zgarishi ham-shayam shunchaki shakl o'zgarishi



Aslida lo'nda qilib faqat mansabdorlar va shu bilan bir qatorda ziyyolilar, deyish ham mumkin. Negaki, masala haqida gap ketganda, qadriyatlardan so'zlaymiz, bahslashamiz, ammo yakunda yana mavhumlik va bo'shilq qoladi, xolos. Bu boradagi o'zaro fikr "urush"ida masalani huquqiy jihatdan tartibga solishning imkonli hozircha yo'qligiga guvoh bo'ldik. Undan ham yomoni, bu ish azaliy qadriyat daramasidan tushib kim o'zar tadbirga aylanib ulgurdi. Bas, shunday ekan, shunday sharoitda mansabdorlar va ziyyolilar "maydon"ga chiqishlari kerak emasmi?

bo'lib qolavermaydi, shakliy o'zgarish degani bu mazmunning ham o'zgarishi va yangilansidir. Ko'plarning ko'nglidan joy olsa, fikr g'oyaga aylanadi. 70-yillarda shoirlarning bosch a'moli erku ozodlik g'oyalari edi. Bugungi she'riyatni esa undan keyingi jarayonlarning ichki holati, iqlimi qiziqtradi. Asar mazmuni kecha qo'yilgan talablar bugun ham o'zgargani yo'q. Hozir ham mazmunden salmoqdorlik, universallik, haqqoniylig, originallik, ta'sirdorlik talab etiladi. Ixchamroq aytganda, NIMAni QANDAY aytish yo'li-yo'rig'i o'zgardi. Kechagi she'r siyqasi chiqqandek tuyuladigan do'stilik mavzuida hamdu sano o'qigan bo'lsa, bugungi she'r do'st bormikan deya savol qo'yyapti.

...sotar bo'dostim meni

chakana narxda.

Shukur,

xaridorim bor ekan

mening ham.

Shaki narsaning mohiyatini qisman ko'rsatishi mumkin. U ba'zan aldamchi xarakterga ega bo'ladi. Go'yoki jodugar kampi chiroylar qiyofasida ko'ringandek. Shakliy mazmuni bir butun hisoblasa-da, ulararo nisbiylik mavjud. Shoiring lirik qahramoni ana shu nisbiylik zamiridagi mohiyatni ko'rmochi. Shaklning mazmunga muvofiq yo nomuvofiqligini ko'rish istagi bu she'riyatning o'zak masalalaridandir.

Faxriyoring lirik qahramoni intellekti baland, shaxs sifatida shakllangan. Olamga va odamga ochiq ko'z bilan qaraydi. Har bir masalada uning shaxsisi qarashlari va nuqtai nazari bor, davroning o'tkinchi shamollariga qarab yo'nalishni o'zgartiravermaydi.

Faxriyoring uslubida bo'rtib ko'rinvuchi jihatlar dan yana biri masalaga kinoyaviy munosabatida ko'zga tashlanadi. Yuqorida eslatilagan "Do'st" she'rida ham bu kinoya qiyofasizlik illatini ko'sartishaga qaratilgan bo'lsa, "Bevaqt ko'z ochgan Bahodir" she'rida o'ziga bo'lgan adabiyotda ibrat namunasi qilib ko'sartilgan adabiy qahramonlarga postmoderncha munosabat bilan yondashuv bor.

Poetik uslubning qaror topishi ko'plab omil-larga bog'liq. Nazarimda, Faxriyoring uslubidagi xodimlar hamda Samarcand davlat universiteti professor-o'qituvchilari ishtiroyida Samarcand shahridagi Galaosiyo va Ibrohimxo'ja mahallalarida bo'lib otdi.

Uchrashevda islomming tinchlik, ezzulik, ma'rifat va bag'rikenglik g'oyalari haqida tushuncha berildi. Islam dini azaldan nafaqat musulmonlar, balki o'zga din vaqillariga ham bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatib kelayotgani, bosqha din ahllari bilan totuv yashashga chaqirgani ta'kidlandi. Tadbirda so'zga chiqqanlar g'oyalari kurashi avj olgan horizgi globallashuv sharoitida diniy-ekstremistik tashkilotlar o'z g'arazli maqsadlaridan kelib chiqib, islam ta'limotini bir yoqlama, noto g'ri talqin qilish orqali odamlarni haq yo'ldan adashtirishga urinayotganini qoraladi.

- Qur'oni karimning yuzdan ziyod oyatida muslimmonlar tinchlikparvarlik, bag'rikeng-

IMLI KO'P-U, AMALI YO'QLAR

To'ylarni tartibga solish borasida eng ko'p kim gapiradi, albattra, mansabdorlar va ziyyolilar. Ammo amalda-chi?

Yaqinda bir rasmiydan "2-3 kunlik to'y o'tkazishning ma'nisi nima?", deb so'rashgan. "Ha, endi elchilik ko'rib turibisz-ku", degan javobni bergan.

Demak, to'ylarning kim o'zarga bo'lishida ham "qovun qovundan rang olyapti".

Bugungi holatlarda ularda faqat ma'naviyat qashshoqligidan dalolat, deyish mumkin. Zotan, o'zi dabdabali to'ylarning targ'ibotchisiga aylanayotgan mansabdorlarning xatti-harakatiga bundan ortiq baho berish dashvur.

## RENESSANSNI SOXTAKORLIK BILAN QURIB BO'LMAYDI

Negadir mansabdorlarimiz, undanam yomoni, ziyyol qatlamida renessans tarixiy ongning bir qismi ekani tan olinmayapti. Davlat rahbari bu haqda ozmuncha gapirdimi? Biz esa tarixiy ong va renessans davrlarini faqat his-hayonga berilib bayon qilyap, lekin u faktga ijodiy yondashib, ilmiy-tanqidiy fikr qilmaymiz.

Misol uchun, to'ylar bilan bog'liq amaliyotda ham buni kuzatish mumkin. Qayerda ko'rdingiz yoki eshitdingiz mansabdor yoki ziyyoli kishi ibratli to'y o'tkazganini?

Endi mulohaza qilib ko'ring. Ikkinci renessansning asosiy figuralaridan biri hazrati Navoiy aqchasi ozligi uchun uyallaganmani? Yoki ilmiy davralarda hali ham ilgari suruladigan fikr – sevgiligi Guliga yetolmagani uchun nikohsiz umr o'tkazganini?

Nazarimizda Nizomiddin Mir Alisher havoyu nafsiya kuchi yetgan komil inson bo'lgani uchun shunday yo'l tutgan.



## MANSAB VA PUL BILAN SINALGAN KASLAR

Oxirgi vaqtarda Samarqandda kuzatilayotgan bir necha holat ko'pchilikning muhokamasi sabab bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan videolavhada bir "boyvachcha" bir necha taxlum pulni sochib yubordi.

Yaqinda o'tkazilan hashamatli to'y turizm markazida bo'lib o'tgan. Unda kelin-kuyov mehnolari qarshisiga kemada suzib kelgan. Sahna uchun eng qimmat dekoratsiyalar qilinib, san'atkorlar xorijan chaqirtilgan. Bu lavhalar ozmuncha muhokama bo'ldimi? Lekin alal-oqibat yuqorida aytganimizda yuqorida yuqurli.

Ammo bu hashamatga havas qilib, shunday tadbir o'tkazhni orzu qilganlar bo'lmadi, deysizmi?

Avval ham aytganidek, qandy to'y qilish, ya'n shaxsiy mablasq'ini qay qaytarishda starlash har kimning shaxsiy ishi, deyishingiz tabii. Biroq yaqin o'tmishtida bor mol-mulkini Vatani uchun tikib yuborgan Said Nosir Mirjalilov, Fayzulla Xo'ja kabi ko'zi to'q ajodalaridom bo'lgani-chi?

Hech bo'limasa, badavlat bir inson farzand o'laroq, ijtimoiy hayotning barcha jabhalalarda o'rak bo'igan Behbudiy bo'lish sizu bizning nega qo'limizdan kelmayapti? Ochofatlik, ko'zi to'ymaslikmi bizning muammoimiz?

Yoqubjon MARQAYEV.

## SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

### 10-OKTABR

Mubarro ISMOLOVA

– 1953-yilda Urgut tumanida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi.

Ahmadjon QURBONOV

– (1921-1945) Jomboy tumanida tug'ilgan. Ikkinci jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Mohira MADIRIMOVA


– 1950-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'zbekiston Respublikasi xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi.

### 11-OKTABR

Shavkat VOHIDOV

– (1932-2008) Samarqand shahrida tug'ilgan. Akademik. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Fizik olim.

## "Imom Buxoriy merosi – yot g'oyalarga qarshi"



lik va jamiyatning barcha a'zolari bilan xushmuomalalikka da'vat etilgan, - deydi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi Shukrullo Umarov. - Islomda inson qadr-qimmatiga katta e'tibor beriladi va e'tiqodidan qat'i nazar, har bir kishining hayoti, sha'ni va haq-huquqlari yuksak qadrlanadi.

Uchrashevda yoshlarni turli axborot xurujlaridan asrash, jamiyatda ijtimoiy-huquqiy xatarlarning oldini olish hamda kuchli mafkuvaviy immunitetni hosil qilishga oid muhim va hayotiy misollar bilan dallillangan ilmiy va amaliy tavsiyalar berildi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahfalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.

Navbatchi muharrir:


G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Sotuvda  
narxi kelishilgan holda

**MUASSIS:** Samarcand viloyati hokimligi

**Bosh muharrir:** Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 345 nusxada chop etildi. Buyurtma 543. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

**Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.**

**QABULXONA:** (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

**BO'LIMLAR:** (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

**MANZILIMIZ:** 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Bosishga topsh